



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 25-noyabr, № 251 (8594)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



BMTNING MARKAZIY OSIYO IQTISODIYOTLARI UCHUN MAXSUS DASTURI DOIRASIDA HAMKORLIKNI KUCHAYTIRISH BO'YICHA AMALIY TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-noyabr kuni Boku shahrida BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPEKA) birinchi sammitida ishtirok etdi.



Ozərbaycan Respublikası Prezidenti İlham Əliyev rəisliɡində o'tgan tadbirə Qozog'iston Respublikası Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikası Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikası Prezidenti

Emomali Rahmon, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisi o'rinbosari Xojamirat Geldimiradov, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi ijrochi kotibi Tatyana Molchan hamda Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va

ijtimoiy komissiyasi (ESKAP) ijrochi kotibi Armida Alisjabana, shuningdek, faxriy mehmonlar — Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban va Gruziya Bosh vaziri Irakliy Garibashvili, Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashini bosh

kotibi Jasim Al-Budayviy qatnashdi. Davlatimiz rahbari so'zining avvalida barcha ishtirokchilarni 1998-yilda Toshkent deklaratsiyasi bilan ta'sis etilgan dasturning 25 yilligi hamda BMT Bosh Assambleyasining ushbu qutlug' sanaga bag'ishlangan alohida rezolyutsiyasi qabul qilangani bilan dildan qutladi.

O'zbekiston yetakchisi Ozarbayjonning samarali raisligida SPEKA doirasidagi mintaqaviy hamkorlik sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini alohida ta'kidladi. Prezidentimiz qayd etganidek, mazkur muhim platforma Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mintaqaviy sheriklikning amaliy mexanizmi sifatida o'zining nihoyatda zarurligini yaqqol ko'rsatdi.

Dastur doirasida tijorat, kommunikatsiya, transport va logistika, raqamlashtirish, energetika, suv resurslari, ekologiya, gender tengligi va boshqa sohalarida amaliy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan 400 dan ortiq loyihalar hayotga tatbiq etildi, savdoni soddalashtirish va innovatsion rivojlanish strategiyalari qabul qilindi.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik va ishonch muhiti kuchayib, integratsiya chuqurlashayotgani katta mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

— Hozirgi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari, Ozarbayjon, Gruziya va Vengriya bilan sanoat kooperatsiyasi va infratuzilma bo'yicha yirik dasturlarni amalga oshirmoqdamiz. Qo'shma

investitsiya kompaniyalarini tashkil etib, moliyalashtirish mexanizmlarini yo'lga qo'ydik. Chegara hududlarida zamonaviy savdo-logistika markazlari va maxsus iqtisodiy zonalar barpo etilmoqda, — dedi Prezident.

Hozirgi global geosiyosiy beqarorlik sharoitida mintaqva mamlakatlari duch kelayotgan xavf-xatarlarga e'tibor qaratiib, O'zbekiston yetakchisi SPEKA doirasidagi mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha qator amaliy tashabbuslarni ilgari surdi.

Dasturni iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish borasida yanada ta'sirchan mintaqaviy platformaga aylantirish maqsadida sheriklikning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ishchi guruhlar faoliyati samaradorligini keskin oshirish, dasturning institutsional asoslarini mustahkamlash zarurligi qayd etildi.

BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi hamda ESKAP ekspertlari bilan birgalikda "SPEKA — 2030" taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqish taklif etildi.

Mintaqaviy savdoni rag'batlantirish maqsadida davlatimiz rahbari mavjud to'siqlarni bartaraf etish va eksport-import operatsiyalarini texnik tartibga solish choralarini uyg'unlashtirish borasida jahondagi eng ilg'or tajriba va amaliyotlarni joriy etishni nazarda tutadigan qo'shma harakatlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqligini ta'kidladi.

Ushbu choralarning qabul qilinishi, Prezidentimizning fikricha, davlatlarimiz o'zaro savdo aylanmasini

2030-yilga borib 100 milliard dollarga, uning tarkibidagi sanoat mahsulotlari ulushini esa 70 foizga yetkazish imkonini beradi.

"Yashil" iqtisodiyot, innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar, logistika, muqobil energetika, "aqlli" qishloq xo'jaligi, zamonaviy ijtimoiy infratuzilmani yaratish va boshqa sohalaridagi yirik loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida SPEKAning Maqsadli jamg'armasini kelgusi yilning o'zida tashkil etish va uning amaliy ishini yo'lga qo'yish muhimligi qayd etildi.

— Jamg'arma xalqaro taraqqiyot institutlari bilan faol ishlashi, ustuvor loyiha va dasturlarga moliyaviy resurslar va grant mablag'larini eng maqbul shartlarda jalb etishi lozim. O'zbekiston ham uni shakllantirish uchun o'z moliyaviy hissasini qo'shishga tayyor, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zaro bog'liq transport yo'laklarini rivojlantirish haqida so'z yuritir ekan, Prezidentimiz Transkaspiy multimodal yo'lagi doirasida ma'lumot almashish jarayonini raqamlashtirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi"ni hayotga to'liq tatbiq etish zarurligini ta'kidladi.

Kelgusi yilda O'zbekistonda "Raqamli transport marshrutlari" xalqaro forumini o'tkazish tashabbusi ilgari surildi.

(Davomi 2-betda).



Ўзбекистон Республикаси Президенти
Матбуот хизмати сурати.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING MARKAZIY OSIYO IQTISODIYOTI UCHUN MAXSUS DASTURI – SPEKA SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Xonimlar va janoblari!

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dasturi — SPEKAning ilk sammitini tashkil etish tashabbusi va ko'rsatilayotgan samimiy mehmondo'stlik uchun Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti hurmatli Ilhom Haydarovich Aliyev nomiga bildirilayotgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Shuni alohida aytib o'tmoqchimanki, Ozarbayjonning samarali raisligida Dasturimiz doirasidagi mintaqaviy hamkorligimiz mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi.

Bu yil Jenevada o'tgan vazirlar uchrashuvi, shu kunlarda Bokuda bo'layotgan "SPEKA haftaligi" va albatta, bugungi tarixiy sammitimiz keng mintaqamizni global ahamiyatga molik o'zaro bog'liqlik markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, hurmatli hamkasblarimni, Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuqori martabali vakillarini va tadbirning barcha ishtirokchilarini qo'shma

Dasturimiz ta'sis etilganining 25 yilligi bilan chin dildan tabriklayman.

Kuni kecha SPEKAning ushbu qutlug' sanasiga bag'ishlangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining alohida rezolyutsiyasi qabul qilangani katta mamnuniyat bilan ta'kidlab o'tmoqchiman.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Toshkentda asos solingan mazkur muhim platforma Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mintaqaviy sheriklikning amaliy mexanizmi sifatida o'zining nihoyatda zarurligini yaqqol ko'rsatdi. Uning doirasida tijorat, kommunikatsiya, transport va logistika, raqamlashtirish, energetika, suv resurslari, ekologiya, gender tengligi va boshqa sohalarida amaliy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan 400 dan ortiq loyihalar hayotga tatbiq etilgani, savdoni soddalashtirish va innovatsion rivojlanish strategiyalari qabul qilangani ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik va ishonch muhiti kuchayib, integratsiya chuqurlashayotganini katta

mamnuniyat bilan ta'kidlayman. Biz muhtaram hamkasblarimiz bilan birgalikda qanday qiyin masala va murakkab muammolarni samarali hal qilganimizni barchangiz yaxshi bilasiz.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari, Ozarbayjon, Gruziya va Vengriya bilan sanoat kooperatsiyasi va infratuzilma bo'yicha yirik dasturlarni amalga oshirmoqdamiz. Qo'shma investitsiya kompaniyalarini tashkil etib, moliyalashtirish mexanizmlarini yo'lga qo'ydik. Chegara hududlarida zamonaviy savdo-logistika markazlari va maxsus iqtisodiy zonalar barpo etilmoqda.

Shu o'rinda hurmatli Ilhom Haydarovich rahbarligida tarixiy adolat tiklangan va ozod etilgan Ozarbayjon hududlarida olib borilayotgan misli ko'rilmagan bunyodkorlik ishlarini alohida e'tirof etmoqchiman.

Albatta, bu xayrli va keng ko'lamli o'zgarishlar mintaqaviy hamkorligimizni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochishiga ishonaman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Hozirgi global geosiyosiy beqarorlik sharoitida mamlakatlarimiz qanday og'ir xavf-xatarlarga duch kelayotganini juda yaxshi his qilib

turibmiz. Zamonaviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish mintaqaviy hamkorligimizni yanada kuchaytirishni, bir-birimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni taqozo etmoqda.

Bu borada quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchidan, O'zbekiston SPEKA dasturini iqtisodiy hamkorligimizni kengaytirish borasida ochiq va yanada ta'sirchan mintaqaviy platformaga aylantirish tarafdoridir.

Shu maqsadda sherikligimizning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ishchi guruhlar faoliyati samaradorligini keskin oshirish, Dasturimizning institutsional asoslarini mustahkamlash vaqti keldi, deb hisoblayman.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa iqtisodiy komissiyasi hamda ESKATO ekspertlari bilan birgalikda "SPEKA — 2030" taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif etamiz.

Ikkinchidan, Dasturimiz doirasida Mintaqaviy savdoni rag'batlantirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

So'z, eng avvalo, mavjud to'siqlarni bartaraf

etish va eksport-import operatsiyalarini texnik tartibga solish choralarini uyg'unlashtirish borasida jahondagi eng ilg'or tajriba va amaliyotlarni joriy etish haqida ketmoqda.

Tahillarga ko'ra, davlatlarimiz o'zaro savdo aylanmasini hozirgi 52 milliarddan 2030-yilga borib 100 milliard dollarga, uning tarkibidagi sanoat mahsulotlari ulushini esa 70 foizga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Uchinchidan, hamkasblarim ta'kidlaganidek, SPEKAning Maqsadli jamg'armasini tashkil etishni tezlashtirish va kelgusi yilning o'zida uning amaliy ishini yo'lga qo'yish kerak.

Jamg'arma faoliyati, birinchi navbatda, "yashil" iqtisodiyot, innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar, logistika, muqobil energetika, "aqlli" qishloq xo'jaligi, zamonaviy ijtimoiy infratuzilmani yaratish va boshqa sohalaridagi yirik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Jamg'arma xalqaro taraqqiyot institutlari bilan faol ishlashi, ustuvor loyiha va dasturlarga moliyaviy resurslar va grant mablag'larini eng maqbul shartlarda jalb etishi lozim.

(Davomi 2-betda).



Biz va jahon

O'ZBEKISTONNING PRAGMATIK SIYOSATI

uning SPEKA doirasidagi ko'p tomonlama, ochiq, amaliy va o'zaro manfaatli sheriklikni izchil rivojlantirish tarafdori ekanini yana bir bor tasdiqladi

Xorijiy ekspertlar O'zbekiston Prezidentining BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi sammitidagi ishtiroki haqida.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-noyabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPEKA) sammitida qatnashdi.

Davlatimiz rahbari sammitda so'zga chiqib, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mintaqaviy sheriklikning samarali mexanizmi sifatida SPEKA platformasining dolzarbligini ta'kidladi, shuningdek, birlashma doirasidagi hamkorlik natijalarini qayd etdi.

Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida respublika rahbari "SPEKA — 2030" taraqqiyot konsepsiyasini, Mintaqaviy savdoni rag'batlantirish bo'yicha qo'shma

harakatlar rejasini ishlab chiqishni, SPEKAning Maqsadli jamg'armasini tashkil etishni tezlashtirish, ko'p tomonlama "Yashil strategiya" sini qabul qilish, shuningdek, SPEKA Tadbirkor ayollari kengashini tuzish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Shuningdek, kelasi yilning boshida O'zbekistonda "Raqamli transport marshrutlari" xalqaro forumini o'tkazish, oziq-ovqat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha yuqori darajadagi maxsus ishchi guruhini tuzish va uning ilk uchrashuvini 2024-yilda Samarqandda tashkillashtirish taklif etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning SPEKA sammitidagi ishtiroki va ilgari surgan muhim tashabbuslari xalqaro siyosiy hamda ekspert doira vakillari tomonidan ham yuksak baholanmoqda



E'tirof

SAMARQAND – GLOBAL KONFERENSIYA UCHUN MUNOSIB MANZIL

UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini 2025-yilda Samarqandda o'tkazish to'g'risidagi qaror tashkilot tarixidagi muhim va olamshumul voqea bo'ldi. Chunki qarorgohi Parij shahrida joylashgan UNESCO an'anadan voz kechib, qirg'yildan beri birinchi marta o'z tadbirini chetda o'tkazadigan bo'ldi. "Boqiy uchrashuv markazi" maqomida tanilgan Samarqand tarixiy ahamiyatga molik joy sifatida tanlandi.

Samarqandning ramziy va muazzam manzil ekanligini inobatga olsak, uning mezb-on shahar sifatida tanlanishi o'ta muhim. Samarqand o'zida madaniy xilmaxlilik, ta'lim va tamaddunlararo muloqot tamoyillarini jamlagan bo'lib, bu UNESCOning maqsadlariga hamohangligi bilan ulkan ahamiyatga ega. Shahar xalqaro nufuzi, boy tarixi va madaniy merosi jihatidan har ikki yilda bir global masalalarni muhokama qilish uchun to'planadigan UNESCOga a'zo 194 ta davlatning ulkan miqyosdagi tadbiri uchun munosib manzil bo'la oladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z minnatdorlik maktubida ta'kidlaganidek,



ushbu muhim global miqyosdagi tadbir xalqaro hamjamiyatga O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining ulkan sivilizatsion salohiyatini yana bir bor namoyish etishga xizmat qiladi.

UNESCO Bosh konferensiyasining 2025-yilda Samarqandda o'tkazilishi tashkilot tarixida o'chmas iz qoldiradi. Zero, ushbu yig'ilishda UNESCOning navbatdagi bosh direktori saylanadi.

Fursatdan foydalanib, O'zbekiston xalqi va Prezident Shavkat Mirziyoyevni ushbu istiqbolli tashabbus va diplomatik muvaffaqiyat bilan tabriklayman.

Sara NOSHADI,
UNESCOning O'zbekistondagi vakili.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirg'yettinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

24-noyabr kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirg'yettinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisi Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlisi Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Senatning qirg'yettinchi yalpi majlisida senatorlar tomonidan dastlab "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni senatorlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi.





O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq yettinchi yalpi majlisi to‘g‘risida

AXBOROT



Ta’kidlanganidek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qabul qilinib, mazkur strategiya doirasida muhim va dolzarb yoʻnalishlar boʻyicha maqsadlar belgilangan.

Muhokama davomida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan vakillik organlariga saylovning aralash, yaʼni majoritar va proporsional tizimini joriy qilish masalasiga alohida eʼtibor qaratildi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada referendum va saylov bilan bogʻliq oʻzgartishlar nazarda tutilganligi, shu sababli amaldagi saylov toʻgʻrisidagi hamda referendum boʻyicha qonunchilikni unga muvofiqlashtirish zarurati ham mavjudligi qayd etildi.

Koʻrib chiqilgan Konstitutsiyaviy qonunga koʻra Qonunchilik palatasi saylovi aralash (majoritar, proporsional) saylov tizimi asosida oʻtkaziladi. Unda Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati majoritar saylov tizimi asosida bir mandatlí saylov okruglaridan, qolgan 75 nafari proporsional saylov tizimi (partiyalar roʻyxati) asosida siyosiy partiyalarga berilgan ovozlari boʻyicha yagona saylov okrugidan saylanishi nazarda tutilgan.

Yana bir muhim masala — siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar koʻrsatilayotganda ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiy sonining oʻttiz foizidan qirq foiziga oshirishni nazarda tutuvchi oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, saylov komissiyalarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan oʻzgartishlar maʼqullandi. Xususan, Markaziy saylov komissiyasi toʻqqiz nafar aʼzodan iborat tarkibda saylanishi, Markaziy saylov komissiyasining Raisi besh yillik muddatga saylanishi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Markaziy saylov komissiyasining Raisi etib saylanishi mumkin emasligi qatʼi belgilanmoqda.

Senatorlar tomonidan mazkur Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi parlament hamda mahalliy vakillik organlarining faoliyatida siyosiy partiyalarning rolini yanada kengaytirishga, Qonunchilik palatasi deputatlari korpusini shakllantirishning majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimi joriy etilishining huquqiy asoslari yaratilishiga xizmat qilishi alohida taʼkidlab oʻtildi.

Qizgʻin muhokamalardan soʻng qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi.

Shundan soʻng yalpi majlisda “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish toʻgʻrisida”gi qonun muhokama etildi.

Taʼkidlanganidek, qishloq xoʻjaligini is-

loh qilish, sohani rivojlantirishning huquqiy asosini mustahkamlash, investitsiyalarni jalb etish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, Yer yuzidagi bugungi ekologik omillarning keskin oʻzgarishi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, shuningdek, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hosildorligi va sifatini oshirishga oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda.

Bu esa, oʻz navbatida, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini taʼminlash va isteʼmol ratsionini yaxshilash, tuproq unumdorligini oshirish, saqlash va asrab-avaylashni talab etmoqda.

Shu bois ushbu qonun bilan yer fondining barcha toifasidagi tuproqning unumdor va tuproq hosil qiluvchi qatlamlari tuproqni muhofaza qilish obyekti sifatida belgilanmoqda.

Qonunda tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi davlat nazorati, yer egalari, yerdan foydalanuvchilarning va yer uchastkalari ijara-chilarining tuproqni muhofaza etish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi huquq va majburiyatlari mustahkamlanmoqda.

Qonunda tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, holatini yaxshilash, unumdorligini saqlash, shuningdek, masʼul vazirlik va idoralarning vakolatlari, yerlarni rekvitativsiyalash, tuproq holati va sifatiga taʼsir etuvchi loyihalar, vositalar va texnologiyalarni davlat ekspertizasidan oʻtkazish masalalari oʻz aksini topmoqda.

Shu bilan birga, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tuproqqa yetkazilgan zararni oʻrni qoplanishini talab qilish huquqi belgilanmoqda.

Shaharsozlik faoliyatini, geologik qidiruvni va foydali qazilmalarni qazib olishni, shuningdek, qishloq xoʻjaligiga oid boʻlmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish chogʻida tuproqning unumdor qatlami sidi-rib olinmaganligi va saqlanmaganligi fakti aniqlangan taqdirda, yetkazilgan zararni oʻrni qoplanishi mustahkamlanmoqda.

Senatorlar ushbu qonunning qabul qilinishi natijasida suv oʻrindadigan tuproqlar unumdorligining pasayishi jarayonlariga barham berilishi hamda tuproq unumdorligini tiklash hisobiga mahsulot yetishtirish hajmining ortishi va toza tuproqda sifatli hamda xavfsiz mahsulot yetishtirish imkoniyati kengayishini taʼkidladilar.

Qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi.

Shuningdek, Oliy Majlis Senatining navbatdagi yalpi majlisida “Davlat mulkini xususiyashtirish toʻgʻrisida”gi qonun koʻrib chiqildi.

Mazkur qonun sohadagi xalqaro tajribadan hamda Yangi Oʻzbekiston Maʼmuriy islohotlar va yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan boʻlib, unda xususiyashtirishning barcha bos-

qichi toʻgʻridan-toʻgʻri amal qiluvchi qonun darajasida belgilanmoqda.

Qonun bilan xususiyashtirish toʻgʻrisida qaror qabul qilish, baholashdan oʻtkazish, boshlangʻich narxni belgilash, maslahatchilarni jalb etish, savdolarini oʻtkazish jarayonlari tartibga solinmoqda.

Shuningdek, xususiyashtirishning qonuniyligi, ochiqlik va shaffoflik, hisobdorlik, teng raqobat muhitini taʼminlash hamda korruptsiyaga yoʻl qoʻymaslik kabi asosiy prinsiplari belgilanmoqda.

Shu bilan birga, amaldagi qonunda aks etmagan elektron-onlayn auktsion va birja, shuningdek, muzokaralarga ommaviy taklif qilish, raqobatga asoslangan muloqot asosida sotish, korxonani va koʻchmas mulk obyekti boshqa jamiyatning ustav fondiga kiritish, korxonalarni keyinchalik sotish sharti bilan ijaraga berish kabi xususiyashtirishning yangi turlari kiritilmoqda.

Bundan tashqari, qonunda xususiyashtirish sohasida Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati va Davlat aktivlarini boshqarish agentligining vakolatlari aniqlanmoqda.

Qonun bilan xususiyashtirish jarayonida ochiqlik va shaffoflikni taʼminlashga qaratilgan meʼyorlar kiritilib, unga koʻra xususiyashtirish toʻgʻrisidagi yigʻma hisobotlar va har bir davlat aktivni savdo jarayonlari bosqichlari toʻgʻrisida maʼlumotlar Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, uning hududiy boshqarmalari, savdo tashkilotchisi va vositachining web-saytlarida, respublika va mahalliy darajadagi ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda eʼlon qilinishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, davlat aktivlarini sotishda boʻlib-boʻlib taʼlim iskoniyati, toʻlovlarini amalga oshirish tartibi va shartlari qonun darajasida belgilanmoqda hamda mulkni balansda saqlovchining javobgarligi kuchaytirilmoqda.

Mazkur qonunning qabul qilinishi davlat aktivlarini zamonaviy uslublar asosida xususiyashtirishning jadallashishini, ochiq va shaffof boʻlishini, barcha xaridorlar uchun teng raqobat muhiti yaratilishini taʼminlaydi.

Qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi.

Shu bilan birga, senatorlar tomonidan “Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, mobil qurilmalar hamda ijtimoiy tarmoq va messenjerlardagi akkaunt yoki kanallarga zararli dastur yuborish yoʻli bilan bloklab (toʻsib) qoʻyish, maʼlumotlarni oʻchirib yuborish, oʻzgartirish yoki olib qoʻyish bilan qoʻrqitib shaxslardan pul yoki boshqa moddiy manfaatdorlik talab qilish holatlari kuzatilmoqda.

Shuningdek, maxsus dasturlar yordamida shaxslarning fotosurati, ovozi va boshqa biometrik maʼlumotlarni soxtalashtirish holatlari ham uchramoqda.

Shu bois Jinoyat kodeksidagi (165-modd) tovlamachilik tushunchasiga oʻzgartirish kiritilib, sharmanda qiladigan uydimarlar bilan bogʻliq huquqbuzarlik uchun ham javobgarlik belgilanmoqda.

Bundan tashqari, xorijdan olib kelinayotgan yoki bloklangan evaly aloqa qurilmalariga maʼlum bir haq evaziga oʻzgalarning IMEI kodlarini koʻchirib berish holatlari koʻpayib bormoqda.

Hozirda birgina IMEI kodida 5 011 ta, yana boshqa bir IMEI kodida esa 2 347 ta SIM karta bir vaqtda faol holatdagi

aniqlangan.

Qonunchilikda bunday harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan biron-bir huquqiy taʼsir chorasini qoʻllash belgilanmagan.

Shu sababli qonunchilikdagi mazkur boʻshliqlarni bartaraf etish maqsadida Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga mobil qurilmaning xalqaro oʻziga xos identifikatsiya kodini yoki abonent qurilmasining identifikatsiyalash modulini qonunga xilof ravishda oʻzgartirganlik uchun maʼmuriy javobgarlik kiritilmoqda.

Shu bilan birga, Jinoyat hamda Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodekslardagi kript-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzganlik hamda mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirganlik uchun tegishli javobgarlik nazarda tutilmoqda.

Noqonuniy kript-aktivlar aylanmasi va mayning bilan shugʻullanganlar ushbu jinoyat haqida oʻz ixtiyori bilan arz qilgan va uni fosh etishda yordam bergan hollarida jinoyi javobgarlikdan ozod qilinishi senatorlar tomonidan qayd etildi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi kelgusida axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish, ularga qarshi kurashish hamda tergov qilishda barcha kuch va vositalarni toʻliq yoʻnaltirishga, shuningdek, kript-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilik hujjatlarini buzish va qonunga xilof ravishda mayningni amalga oshirish uchun javobgarlik doirasini aniqlash bilan belgilash imkonini beradi.

Qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi.

Bundan tashqari, Senatning qirq yettinchi yalpi majlisida “Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuniga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun senatorlar tomonidan muhokama qilindi.

Mamlakatimizda joriy yil katta siyosiy voqealik — umumxalq referendumini oʻtkazib, uning yakunlariga koʻra, xalqimiz xohish-irodasi bilan yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Yalpi majlisda muhokama etilgan qonun ham yangilangan Konstitutsiyaga kiritilgan qoidalardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Kiritilayotgan oʻzgartirishlarga muvofiq Konstitutsiyaviy sud vakolatlari kengaytirilib, Oʻzbekiston Respublikasi referendumiga chiqarilayotgan masalalarning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqli toʻgʻrisida xulosa berishi belgilanmoqda.

Konstitutsiyaviy sud faqatgina oʻz vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar boʻyicha qonunchilik tashabbusi huquqiga ega ekanligi nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sudning shaxslari qayta saylanish huquqisiz oʻn yillik muddatga saylanishi mustahkamlanmoqda.

Senatorlar taʼkidlaganidek, mazkur qonunning qabul qilinishi natijasida Konstitutsiya va qonunlarining ustuvorligi hamda ularning bir xilda amalda boʻlishiga erishiladi.

Muhokamadan soʻng qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi.

Shu bilan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq yettinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot xizmati.

AFRUZA HAMDAMOVA –
O'ZBEKISTON TARIXIDA
QIZLAR O'RTASIDA
ILK JAHON CHEMPIONI

Italiyaning Montesilvano shahrida o'tkazilayotgan shaxmat bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatida hamyurtimiz Afruza Hamdamova qizlar orasida O'zbekiston tarixida ilk jahon chempioniga aylandi.



Nufuzli musobaqada dunyoning 92 davlatidan kelgan jami 766 nafar shaxmatchi 14, 16, 18 yosh toifasida sovrinli o'rinar uchun kurash olib bormoqda. Jahon chempionatida yurtimiz sharafigini uch nafar shaxmatchi himoya qilmoqda.

Afruza Hamdamova 14 yoshgacha bo'lgan ishtirokchilar o'rtasida g'oliblik uchun bellashdi. Jahon chempionati davomida Livan, Gruziya, Meksika, Fransiya, Qozog'iston, Rossiyadan kelgan tengqurlarini mag'lubiyatga uchratdi. Hal qiluvchi 10-turda Afruza Hamdamova rossiyalik Anna Shuxmanga qarshi bahs olib bordi va g'alabaga erishdi. Shu tariqa o'zbekistonlik yosh shaxmatchi muddatdan avval jahon chempionligini qo'lga kiritdi. E'tiborli jihati, unga ochkolar bo'yicha yetib olishi mumkin bo'lgan yagona ta'qibchisi — qozog'istonlik shaxmatchini o'zaro o'yinda mag'lub etgan. Turnir reglamentiga ko'ra, ochkolar teng kelib qolsa, o'zaro bellashuv natijasi inobatga olinadi.

Bungacha hamyurtlarimizdan Gulruhbegim Tohirjonova va Bahora Abdusattorova jahon chempionatlarida o'z yosh toifalarida kumush medallarni qo'lga kiritishgan edi.

“Xalq so'zi”.

REKLAMA

JAHON IQTISODIYOTI
VA DIPLOMATIYA
UNIVERSITETIquyidagi lavozimlarga
tanlov e'lon qiladi:

Ingliz tili kafedrası — dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi;

Roman-german tillari kafedrası — katta o'qituvchi (nemis, fransuz tillari), o'qituvchi (italyan, nemis tillari);

Sharq tillari kafedrası — o'qituvchi (arab tili, xitoy tili);

O'zbek va rus tillari kafedrası — dotsent (rus tili, jismoniy tarbiya), katta o'qituvchi (o'zbek tili, jismoniy tarbiya), o'qituvchi (rus tili);

Siyosatshunoslik kafedrası — dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi;

Xalqaro munosabatlar kafedrası — dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi;

Xalqaro iqtisodiyot kafedrası — professor, o'qituvchi;

Xalqaro moliya va investitsiyalar kafedrası — o'qituvchi;

Tizimli tahlil va matematik modellashtrish kafedrası — professor, o'qituvchi;

Fuqarolik huquqi va xalqaro xususiy huquq fanlari kafedrası — professor, dotsent, o'qituvchi;

Xalqaro huquq va ommaiy huquq fanlari kafedrası — o'qituvchi.

Hujjatlar (ariza, fotosuratli shaxsiy varaqa, tarjimai hol, oliy ma'lumot, ilmiy daraja va unvonlar haqidagi diplomlarning nusxalari, ilmiy ishlar ro'yxati) ushbu e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy muddat ichida Toshkent shahri, Mustaqillik shohko' chasi, 54-uy (e-mail: kadrlar_bulimi@uwed.uz, telefon: 71-267-65-40) manzilida qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi jamoasi mas'ul xodim Salix Marufovich Israilovga onasi
Xalima Usmanovna ISRAILOVaning vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti rahbariyati va xodimlari institutning yetakchi ilmiy xodimi, san'atshunoslik fanlari doktori
Valentina Vitalyevna LUNYOVAning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolariga chuqur hamdardlik izhor etadi.

GLOBAL MIQYOSDA IQLIM O'ZGARISHIGA
QARSHI KURASHISHbugungi kunda yashil maydonlarni kengaytirish va bu yo'nalishda
o'zaro sa'y-harakatlarni birlashtirishda yanada yaqqol namoyon bo'ladi

Insoniyatning o'z taraqqiyoti yo'lida tabiatga nisbatan xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishi atrof-muhit muvozanatining izdan chiqishiga sabab bo'lyapti, desak, mubolag'a emas. Global isish natijasida sayyoramiz qutblarida ming yillar davomida shakllangan muz qatlamlari erib borayotgani, tog' cho'qqilaridagi qor qoplamlari bug'lanib, tobora kamayayotgani butun dunyo aholisi uchun xavf tug'diradi.

Nuqtai nazar

Qurg'oqchilikning tez-tez takrorlanishi, cho'llanish jarayonlarining jadal-lashuvi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi barqarorlikni buzib, oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solyapti. Shu jihatdan, bugun jahon hamjamiyati iqlim o'zgarishini insoni-yat olidida turgan eng jiddiy muammo-lardan biri, deb atayotgani bejiz emas. Joriy yilning 1-2-dekabr kunlari Dubay shahrida bo'lib o'tadigan Bir-lashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konven-siyasi ishtirokchilarining 28-konferen-siyasi doirasida Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish sohasidagi harakat-lar bo'yicha jahon sammitini o'tkazish ko'zda tutilgan bo'lib, unda aynan shu muammolar yechimini muhokama qil-ish rejalashtirilyapti.

Dunyoning deyarli barcha mam-lakati, xususan, O'zbekiston delegat-siyasi, nufuzli xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyatlari vakillari to'plana-digan ushbu forum iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va uning oqibatlarini yumshatish, iqlim bo'yicha strategi-yalar va "yashil" energetikaga o'tish-ni moliyalashtirish borasidagi xalqaro sa'y-harakatlarni birlashtirishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Iqlim o'zgarishi muammosi Orol dengizining qurishi oqibatida kelib chiqqan ekologik inqirozni boshidan kechirayotgan Markaziy Osiyo mint-aqasi uchun eng o'tkir muammo-lardan biriga aylanmoqda.

Yashirishning hojati yo'q, dunyoning ko'plab hududlarida insonlar ziroatchilik va chorvachilikda foyda-lanayotgan yer maydonlari yaqindag holga kelib qolyapti. Ayniqsa, oxirgi yillarda cho'llanish oqibatlarini yaqqol sezilmoqda. Markaziy Osiyo ham ja-honda keskin cho'llashayotgan mint-aqalardan biri. Oxirgi yillarda yuzaga kelgan suv taqchilligi dehqonchilik yerlarida sho'r yuvishni ham mushkul-lashtirdi, bu esa tuproq sifati yanada yomonlashib, hosildorlik pasayishiga olib keladi.

Olimlar Yer sayyorasida cho'llan-ishning asosiy sabablari sifatida aholi sonining ko'payib borayotgani, o'rmon va daraxtzorlar kesilayotgani, tuproq yaylov sifatida haddan ziyod ko'p foydalanilayotgani, tuproq eroziyasi hamda iqlim o'zgarishini tilga oladi va bu omillarning ta'sirlarini kamayti-rishga chaqiradi. Buning eng samarali yo'llaridan biri — daraxt ekish. Ikkin-chisi — qayta tiklanadigan, muqobil energiya manbalarini keng joriy etish.

Dunyo miqyosida oladigan bo'lsak, oxirgi 20 yil ichida 4,5 milliardga yaqin odamlar iqlim o'zgarishlari tufayli yuz bergan yirik tabiiy ofatlardan aziyat chekdi, 1,2 million kishi halok bo'ldi, iqtisodiy zarar esa qariyb 3 trillion dol-larni tashkil etdi.

Mintaqadagi muzliklar
maydoni 30 foiz kamaydi

Mutaxassislarning fikricha, Marka-ziy Osiyo mamlakatlari geografik joy-lashuv xususiyatlaridan kelib chiqib, iqlim o'zgarishlari keltirib chiqaradi-gan oqibatlarga ko'proq moyil. Bugun-gi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari bunday salbiy oqibatlarni allaqachon boshdan kechirmoqda. Ulardan eng asosiylarini sanab o'tish mumkin.

Birinchi — muzliklar maydonining qisqarishi. So'nggi 50 — 60 yilda mint-aqadagi muzliklar maydoni 30 foiz ka-maydi. Qirg'iziston va Tojikistondagi ko'p asriik muzliklarning sezilarli dara-jada jadal erishi kuzatilyapti. Hisob-ki-toblarga ko'ra, haroratning 2 darajaga ko'tarilishi muzliklar maydonining 1,5 baravar, 4 darajaga ko'tarilishi esa 80 foiz qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi — suv resurslarining yetishmasligi. Aytish joizki, mintaqa mamlakatlarida bu masala allaqachon tanglik darajasiga yetgan. Bashorat-larga ko'ra, 2050-yilga borib, suv resurslari Sirdaryoda 5 foizga, Amu-daryoda 15 foizgacha qisqaradi.

Uchinchi — cho'llanish jarayonlari

va yerning degradatsiyasi. BMT ma'lu-motlariga ko'ra, o'tgan 50 yilda mintaqa mamlakatlarida cho'llanish jarayoni qa-mrovi 15 — 20 foiz oshgan.

To'rtinchi — Orol dengizi muam-mosi. Hozirgi kunda jahon hamjam-iyati Orol dengizi inqirozi nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki global miqyosda ham salbiy oqibatlar-ga olib kelayotganini e'tirof etmoqda. Oxirgi 40 yilda dengiz o'z maydonin-ing 57 foizini, hajmining 80 foizini va chuqurligining 64 foizini yo'qotdi.

O'zbekiston Orol dengizining quri-shi oqibatida uning tubidan osmonga ko'tarilayotgan minglab tonna tuzli changlarning odamlar salomatligiga, dehqonchilik va iqtisodiyotga ta'siri-dan aziyat chekib kelayotganiga an-cha bo'ldi.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'sib borayotgan global tahdidlarga kompl-eks javob qaytarish maqsadida 2015-yil 12-dekabrda Parij Bitimi qabul qilingan bo'lib, ushbu hujjat 2016-yil 4-noyabrda kuchga kirgan. Bitimn-ing maqsadi BMT Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy Konvensiyasining amalga oshirilishini faollashtirish, global o'rtacha haroratni bir me'yor-da saqlab turishdan iborat. Buning uchun 2050-yilgacha "issiqxona ga-zlari" global ajratmalarini 40 — 70 foiz kamaytirish, 2100-yilga borib esa 0 yoki manfiy ko'rsatkichga erishish ta-lab etiladi.

O'zbekiston Parij Bitimini 2017-yil 19-aprelda imzolagan bo'lib, 2018-yil 3-oktabr kuni ratifikatsiya qilindi. Unga binoan, O'zbekiston Respub-likasi 2030-yilgacha bo'lgan uzoq muddatli istiqbolida iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha chora va ha-rakatlarni kuchaytirish orqali "issiqxo-na gazlari" solishtirma tashlamalarini 2010-yildagi darajaga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligida 10 foizga qis-qartirishni mo'ljallamoqda.

Mazkur bitimdan kelib chiqib, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash masalasi-da O'zbekiston qat'iy chora-tadbirlar ko'rayotganini ta'kidlash joiz. Xusa-nan, keyingi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini saqlash, ekologik xavfsi-zlikni ta'minlash ishlariga alohida e'ti-bor qaratilmoqda.

Jumladan, Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida ekologik masala-larda, xususan, Orol dengizining qur-ishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etishda xalqaro miqyosdagi sa'y-har-akatlarni faol birlashtirish zarurligini ta'kidlab o'tdi. Bugungi kunda mazkur masalalarga amaliy ishlariga barcham-iz guvoh bo'lib turibmiz.

Misol sifatida BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trust fondining ochilishi yoki Orolning qurigan tubida o'rmonzor tashkil etilayotgani, bir yarim million gektardan ziyod maydonda saksovl va cho'l o'simliklari urug'leri sepilgani va ko'chatlari ekilganini keltirish mum-kin.

Birlashsagkina natijaga
erishamiz

Prezidentimiz nutqida O'zbekis-ton tomonidan Orol fojiasi oqibatlar-ini bartaraf etish yo'lida ko'rilyotgan choralar, mintaqamizdagi iqlim o'zga-rishning salbiy ta'siri va suv bilan ta'minlanganlik darajasining kamay-ish tendensiyalari to'g'risidagi ma'lu-motlar keltirildi. Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Suv resurs-lari bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'sis etilishi, Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platforma-si yaratilishi va mintaqamizda qabul qilingan "Yashil taraqqiyot" dasturi doirasida tizimli hamkorlikning yo'lga qo'yilishi barchaga birdek naf keltiradi.

Bundan tashqari, davlatimiz rah-bari "Markaziy Osiyo iqlim muloqoti"ni joriy etish taklifini ilgari surdi. Qolaver-



sa, O'zbekiston tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleya-sining "Markaziy Osiyo global iqlim tah-didlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamijhatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surildi. Uning asosiy mazmunini kelgusi yil Samarqandda bo'lib o'tadigan xalqaro iqlim forumida muhokama qilish taklif etildi.

O'zbekiston iqtisodiyotining asos-iy tarmoqlarini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va "yashil" energetika ulush-ini keskin oshirish strategik vazifa si-fatida belgilanganligini eslatib o'tish joiz. Davlatimiz rahbarining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodi-yotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida atrof-muhitni muhofazalash va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish masalalari belgilangan iqlim o'zgar-ishlarining oldini olish va unga mo-slashtirish uchun xizmat qiladi.

Global iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga keladigan ekologik muam-molarni hal etishda barcha davlatlar hamda insoniyat birlashsagina natija-ga erishadi. Shuni unutmassiz lozimki, kelajak avlod uchun musaffo osmon, go'zal tabiat va uning bebaho ne'mat-larini bekamu ko'st yetkazish bizning burchimizdir.

Shu nuqtayi nazardan, 2022-yil noyabrda Shanxay hamkorlik tash-

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'sib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida 2015-yil 12-dekabrda Parij Bitimi qabul qilingan bo'lib, ushbu hujjat 2016-yil 4-noyabrda kuchga kirgan. Bitimning maqsadi BMT Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy Konvensiyasining amalga oshirilishini faollashtirish, global o'rtacha haroratni bir me'yorda saqlab turishdan iborat. Buning uchun 2050-yilgacha "issiqxona gazlari" global ajratmalarini 40 — 70 foiz kamaytirish, 2100-yilga borib esa 0 yoki manfiy ko'rsatkichga erishish talab etiladi.

kilotitga a'zo mamlakatlar davlat rah-barlarining Samarqand shahridagi sammiti yakunlari bo'yicha O'zbeki-ston tomonidan SHHT mamlakatlari o'rtasida turli yo'nalishlar, xususan, global iqlim isishiga qarshi choralar bo'yicha hamkorlikni mustahkam-lashga qaratilgan qator tashabbuslar ilgari surilgani muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan SHHT Iqlim kengashini tuzish tashabbusi alohida qiziqish uyg'otdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bun-day kengashning tuzilishi SHHTga a'zo mamlakatlar olimlari, ekspertlari, ekologlari va biznes vakillarining maz-kur yo'nalishdagi qo'shma sa'y-har-akatlarni birlashtirishga imkon beradi. Bunday format iqlimga moslashtish loyihalarini ilgari surish, cho'llanish-ga va tuproq degradatsiyasiga qarshi kurashish, suvni tejaydigan texnolog-iyalarni joriy etishdagi hamkorlik sa-maradorligini oshirishga xizmat qila-di. Prezidentimizning SHHT Iqlim kengashini tashkil etish to'g'risidagi tashabbusi mantiqiy va o'z vaqtida ilgari surilgan bo'lib, davlat rahbar-larining tashkilot sammiti doirasida qabul qilingan "Iqlim o'zgarishiga qarshi choralar to'g'risida"gi bayonoti fonida, Orol dengizi ekologik fojiasin-ing halokati oqibatlarini bartaraf etish nuqtayi nazaridan alohida dolzarb ahamiyatga ega.

SHHT Iqlim kengashini tashkil etish to'g'risidagi ushbu tashabbus tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan

ijobiy qabul qilindi va qo'llab-quvvat-landi. Buning uchun barcha asoslar yetarli. Zero, global iqlim o'zgarishin-ing salbiy oqibatlari miqyosi chegara bilmaydi, ayniqsa, muzliklar erishi, suv resurslarining qisqarishi, qurg'oqchilik va yerlar degradatsiyasi, tabiiy ofatlar sonining oshishi, flora va fauna noyob turlarining yo'qolib borishi ortga qa-tymas tus olgan. Bu iqlim bilan bog'liq salbiy oqibatlarning qisqacha ro'yxati.

Shundan kelib chiqqan holda nu-fuzli tashkilotlardan biri sifatida SHHT ushbu muammoni chetlab o'tolmay-di. Iqlim sohasida bayonotning qab-ul qilinishi, shuningdek, sammit doirasida Iqlim kengashini tashkil et-ish to'g'risida tegishli tashabbusning ilgari surilishi SHHTga a'zo mam-lakatlarning global iqlim chaqiqlariga nisbatan befarq emasligini va chuqur tashvishda ekanini namoyish etdi. O'zbekiston tashabbusi bilan SHHT-ning Dushanbada bo'lib o'tgan sam-mitida "Yashil kamar" dasturi qabul qilinganini ham e'tirof etmoq joiz.

O'zbekiston keng qamrovli
hamkorlikni rivojlantirishdan
manfaatdor

Turkiy davlatlar tashkilotining Osto-na sammiti doirasida ham mamlaka-timiz Prezidenti tomonidan ekologi-yaga oid dolzarb tashabbuslar ilgari surildi. Chunki O'zbekiston bu sohada keng qamrovli hamkorlikni rivojlan-tirishdan manfaatdor. Vazirlar dara-jasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Turkiy ekologiya forumining tuzilishi bu yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz. Bunday ta'sirchan mexanizm tashkilot faoliyati samara-dorligini oshirishga qaratilgan rejalar-ga mosdir.

Davlatimiz rahbarining barcha tashabbus va takliflari "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha vazifalar bilan hamohang. Strategiyada ko'rsatilgan vazifalar-ga ko'ra, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 444 ta yashil bog'

barpo etiladi. Buning uchun barcha davlat idoralari, korxonalar, ta'lim muassasalarining hududida yashil bog'lar tashkil qilinadi.

Ayniqsa, yirik sanoat korxonalari bu borada jonbozlik ko'rsatishi naza-rda tutilgan. Ya'ni 112 ta yirik sa-noat korxonasi uch yil davomida 30 million tup ko'chatdan iborat "yashil belbog'" barpo etishi belgilangan. O'rmonlar maydonini kengaytirish borasida ham vazifalar ko'zda tutil-gan bo'lib, xususan, respublikaning o'rmon bilan qoplanganlik darajasini 8,1 foizga yetkazish, Orolbo'yi mint-aqasidagi o'rmonzorlarni 1,9 million gektarga yetkazish, Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 200 ming gektar yashil maydonlarni yaratish maqsad-vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida cho'llanish, qurg'oqchilik, chang-qum bo'ronlari va haroratning ko'tarilishiga qarshi chora sifatida jami 400 ming gektar maydonda "yashil qoplamalar" — himoya o'rmonzorlari

qisqacha aytganda, Yer yuzida global miqyosda iqlim o'zgarishi, cho'llanish jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi zamonada, ayniqsa, bizning katta o'rmonli mintaqamizda, asosan, qumli cho'l hududlarida o'rmonzorlar maydonlarini kengaytirish va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish ulkan ahamiyatga ega.

Mazkur muhim omil, shuningdek, cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga keng tatbiq etish, mahalliy aholining cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha xabardorligini oshirish, yerlardan barqaror foydalanish dasturlarini ishlab chiqib, amaliyotda samarali qo'llashni ham taqozo etadi.

Bahodir MIRZAYEV,
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti rektori, professor.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1141.32 572 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; ko'tibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'yozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.38 Topshirildi — 00.40

1 2 3 4 5 6